

CHET (ARAB) TILINI O'QITISHDA TARJIMAGA TAYANISH MUAMMOSI VA SAMARALI INNOVATSION METODLAR ORQALI UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Abdusalomova Xulkaroy Kodirjon qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) yo'nalishi

3 bosqich talabasi

Nuriddinov Hojiakbar

“Al-Azhar” kafedrası katta o'qituvchisi (PhD)

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada arab tilini chet tili sifatida o'rgatishda tarjima vositasiga ortiqcha tayanishdan kelib chiqadigan metodik muammolar, uning o'quv jarayoniga ta'siri va ushbu muammoni zamonaviy innovatsion texnologiyalar yordamida bartaraf etish yo'llari ilmiy asosda yoritiladi. O'qituvchi tomonidan ona tilidan keng foydalanish natijasida talabalarda shakllanadigan tarjimaga asoslangan fikrlash, muloqotdagi sustkashlik va fonetik qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada kommunikativ ta'lim yondashuvi, CLIL metodikasi, to'g'ridan-to'g'ri metod, AR/VR ta'lim vositalari, sun'iy intellektga asoslangan resurslar va multimediya texnologiyalarining samaradorligi ilmiy jihatdan baholanadi. O'zbekiston ta'lim amaliyoti misolida vosita tilga qaramlikning oldini oluvchi innovatsion yechimlar, metodik tavsiyalar va ta'limning integrativ shakllari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: arab tili, tarjima vositasi, innovatsion metodlar, kommunikativ yondashuv, CLIL, AR/VR, sun'iy intellekt, fonetika, til muhiti.

АННОТАЦИЯ. В статье проводится научный анализ методических проблем, возникающих в процессе преподавания арабского языка как иностранного из-за чрезмерного использования языка-посредника, а также рассматриваются пути их решения посредством современных инновационных

технологий. Оценивается влияние родного языка на формирование у студентов переводческого мышления, снижение речевой активности и сложности в фонетике. Кроме того, исследуется эффективность коммуникативного подхода, методики CLIL, прямого метода, технологий AR/VR, искусственного интеллекта и мультимедийных средств. На основе опыта системы образования Узбекистана предложены методические рекомендации и инновационные решения, направленные на снижение зависимости от языка-посредника и повышение эффективности обучения арабскому языку.

Ключевые слова: арабский язык, язык-посредник, инновационные технологии, коммуникативная методика, CLIL, языковая среда, фонетика, цифровые ресурсы.

ABSTRACT. This article scientifically analyzes the challenges caused by excessive reliance on a mediating language in teaching Arabic as a foreign language and explores effective solutions based on modern innovative technologies. It evaluates how dependence on the native language creates translation-based thinking, reduces communicative engagement, and complicates phonetic acquisition for learners. Furthermore, the effectiveness of the communicative approach, CLIL methodology, direct method, AR/VR tools, artificial intelligence-based platforms and multimedia technologies is examined. Using Uzbekistan's educational experience, the study proposes methodological solutions and innovative strategies aimed at minimizing mediating language dependency and fostering natural Arabic language acquisition.

Keywords: Arabic teaching, mediating language, innovative methods, communicative competence, CLIL, AR/VR, AI in education, learning environment.

KIRISH. Bugungi globallashuv jarayonida arab tilining xalqaro mavqei keskin ortib bormoqda. Diniy, siyosiy, madaniy, iqtisodiy aloqalarning kengayishi, arab davlatlarida o'qish, ishlash yoki hamkorlik qilish imkoniyatlarining ko'payishi natijasida arab tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada oshdi. Shu bois

arab tilini chet tili sifatida zamonaviy pedagogik talablarga muvofiq o'qitish bugungi ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Til o'rganish jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelyapti, shulardan biri o'quv jarayonida faqat tarjimaga tayanib qolish holatidir. Chet tilini o'rganish jarayonida o'quvchilar ko'pincha yangi so'z yoki iborani tushunish uchun tarjimaga tayanib qoladilar. Bu usul dastlabki bosqichda ma'lum darajada yordam berishi mumkin, ammo uzoq muddatda tilni egallash jarayoniga bir qator salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tarjimaga haddan tashqari tayanishning asosiy muammosi shundaki, o'quvchi tilni oraliq vosita orqali emas, balki bevosita mazmun orqali anglash ko'nikmasini shakllantira olmaydi. Natijada, til o'z-o'zidan muloqot vositasiga emas, balki ma'noni "kodlash va dekodlash" jarayoniga aylanib qoladi.¹⁵⁷ Tarjimaga tayanishning eng muhim kamchiligi – fikrlashning o'zbek tilidan ajralmasligidir. O'quvchi so'zni eshitganda avval uni ona tiliga tarjima qiladi, keyin mazmunini tushunadi, so'ng unga mos javobni yana o'zbek tilida shakllantirib, chet tiliga qayta o'giradi. Bu jarayon sekin, murakkab va tabiiy muloqotga zid hisoblanadi. Xususan, arab va turk tillarini o'rganishda grammatik farqlar, gap tuzilmasi va ma'no nozikliklari sabab tarjima ko'pincha noto'g'ri tasavvur yaratadi. Bundan tashqari, tarjimaga ortiqcha tayanish o'quvchining kontekst asosida ma'no chiqarish, taxmin qilish, sof til muhitida fikrlash kabi asosiy kommunikativ kompetensiyalarini cheklaydi. Bu esa og'zaki nutq, tinglab tushunish, hatto yozma nutqning shakllanishida ham to'siq bo'ladi. O'quvchi tilni "tizim" sifatida emas, balki "tarjimalar to'plami" sifatida qabul qila boshlaydi. Shu sabab, zamonaviy til o'qitish metodikasi tarjimadan to'liq voz kechishni emas, balki uni chegaralangan, yordamchi vosita sifatida qo'llashni taklif etadi. Asl til muhitida tushunish, tasviriy kontekstlardan foydalangan holda izohlash, sinonimlar orqali ma'no ochish, vizual va audio materiallardan foydalanish – tarjimaga tayanishni kamaytiradigan samarali usullar hisoblanadi. Arab tili ta'limida uchraydigan asosiy metodik muammolardan biri — bu o'quv jarayonida vosita tilga

¹⁵⁷ Eschanov U. Arab tili sarf ilmini o'qitishdagi pedagogik muammolar va ularni yechish yo'llari. //Eurasian Journal of Social Science, Philosophy and Culture, 2025. —№ 5. —B. 162-167.

ortiqcha tayanishdir. Vosita til deb, o'rganilayotgan tilni tushuntirishda qo'llanadigan ona tiliga aytiladi; biroq uning haddan ziyod qo'llanilishi talabalarda arabcha mazmunni to'g'ridan-to'g'ri idrok etish qobiliyatini sustlashtiradi.¹⁵⁸ Grammatik tuzilmalarni har safar o'zbek tiliga bog'lash, fonetik farqlarni tarjima orqali tushuntirish, matn mazmunini har doim ona tilida sharhlash — bularning barchasi arab tilida mustaqil fikrlash va eshitib tushunish jarayoniga to'sqinlik qiladi. Shu sababli arab tili ta'limida vosita tilning o'rni, uning chegarasi, undan oqilona foydalanish me'yorlari, shuningdek, innovatsion texnologiyalar yordamida bu muammoni kamaytirish yo'llarini o'rganish ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi.

ASOSIY QISM. Arab tilini o'qitishda tarjima vositasidan foydalanish o'qituvchi uchun qulay ko'rinsa-da, amalda u talabaning tilni tabiiy qabul qilish jarayoniga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Arab tili fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi o'zbek tilidan tubdan farq qilgani bois, har bir qoidani tarjima orqali tushuntirish talabaning idrok jarayonini sun'iy tarzda "ona tilga bog'lab qo'yadi". Natijada eshitish, o'qish va gapirish ko'nikmalari izchil shakllanmaydi. O'quvchi arabcha so'zlarni o'rganayotganda avval o'zbekcha ekvivalentni qidiradi, har bir gapni o'zbek tilidagi sintaktik tartibga moslab talqin qiladi, fonetik farqlarni ongli ravishda sezmaydi. Ayniqsa, arab tilidagi ح, غ, ع, ه kabi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish faqat ko'p eshitish va takrorlash orqali shakllanadi, tarjima orqali emas. Agar darsning katta qismi o'zbek tilida olib borilsa, o'quvchining eshitib tushunish ko'nikmasi keskin pasayadi. Shu bilan birga, tarjimaga tayanish ko'pincha sintaktik qoidalarining noto'g'ri shakllanishiga sabab bo'ladi. Arab tiliga xos bo'lgan fe'l boshda kelishi, ta'kid unsurlari, i'rob tizimi kabi jihatlar faqat bevosita misollar, muloqot va matn orqali o'zlashtiriladi. Grammatikani faqat izoh orqali o'rgatish nazariy bilimni mustahkamlasa-da, amaliy nutqda qo'llashga imkon bermaydi. Biroq vosita tilni mutlaqo taqiqlash ham

¹⁵⁸ Maksumova I. O'zbekistonda oliygohlarda arab tili o'qitish tajribalari. // Ilm fan xabarnomasi, 2025. 10- jild. — № 1. www.worldlyjournals.com

samarali emas. Ayrim murakkab ilmiy, diniy matnlar, sintaktik hodisalar yoki abstrakt tushunchalar bo'yicha qisqa, aniq izoh berish vaqtini tejaydi va talabaning mavzuni tushunishiga yordam beradi. Shu bois, vosita tilning o'rni minimal, maqsadga yo'naltirilgan va faqat murakkab nuqtalarni yoritishga qaratilgan bo'lishi kerak. Zamonaviy innovatsion texnologiyalar ushbu muammoni samarali hal etadi. Masalan: Kommunikativ metod. U o'quvchini tarjimasiz, real muloqotga kirishishga undaydi. Darsning asosiy qismi arab tilida olib boriladi; so'zlar tarjima emas, vaziyat orqali tushuntiriladi. CLIL texnologiyasi.¹⁵⁹ Fan va tilni integratsiya qilgan holda tilni tabiiy kontekstda o'rgatadi. Masalan, geografiya yoki tarix mavzulari arab tilida o'tiladi. Bu esa tarjimaga ehtiyojni keskin kamaytiradi. To'g'ridan-to'g'ri metod. O'rganilayotgan tilning mazmuni ona tili yordamisiz, tasvir, misol, ko'rsatma, harakat va muloqot orqali beriladi.

Virtual muhit orqali o'quvchi arab tilidagi tabiiy vaziyatlarga kiradi: do'kon, aeroport, muzey, shifoxona. O'quvchi tarjimasiz, to'g'ridan-to'g'ri kontekst orqali tilni o'zlashtiradi.

AI yordamida adaptiv dialoglar, haxsiylashtirilgan talaffuz mashqlari, avtomatik tahlil qilingan xatolar — bularning barchasi arab tilidagi fikrlashni kuchaytiradi. Multimediya vositalari Podcastlar, o'quv videolari, musiqa, suhbatlar — eshitib tushunishni faollashtiradi va tarjimaga qaramlikni kamaytiradi. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, darsning kamida 70 foizi arab tilida olib borilgan sinflarda talabalar mustaqil muloqotga tezroq kirishadi, grammatik qoidalar esa tarjima emas, qo'llanish jarayoni orqali shakllanadi. Demak, masalaning ildizi vosita tilning mavjudligida emas, balki uning chegaralanmagan holda qo'llanilishidadir. Yechim — arab tilida tabiiy muloqot muhiti yaratish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va tarjimani faqat zarur minimal darajada qo'llashdir. Shu bilan birga Arab tilini o'qitishda vosita tilning qo'llanishi o'qituvchilar uchun qulay didaktik vosita bo'lib ko'ringan bo'lsa-da, amalda u arab tili ta'limining sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan murakkab metodik muammo sifatida namoyon bo'ladi.

¹⁵⁹ Hitti Ph. K. History of the Arabs. — New York: Palgrave Macmillan, 2002. —P. 58-60.

O'qituvchi dars davomida tushuntirishni sodda qilish, grammatik qoidalarni tezroq anglatish yoki talabalar bilan o'zaro muloqotni yengillashtirish maqsadida ona tiliga murojaat qiladi; biroq arab tilining fonetik, morfologik va sintaktik tizimi o'zbek tilidan tubdan farq qilgani sababli, bunday tarjimaviy yondashuv ko'pincha talabalarda arab tilini tabiiy qabul qilish jarayonini cheklaydi.¹⁶⁰ Tilning o'ziga xos lug'aviy shakllanishi, ildiz va vazn tizimiga asoslangan morfologiyasi, talaffuzdagi fonematik farqlar faqat arab tilining o'zida ko'p takrorlash, eshitish va faol muloqot orqali o'zlashtirilishi mumkin. Shu sababli, vosita tilning ortiqcha qo'llanishi talabaning ruhiy energiyasini tarjima fikrlashga yo'naltiradi va arab tilida bevosita fikrlash jarayonining shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, grammatikani ona tilida izohlashga ko'proq tayangan sinflarda talabalar nutqiy muloqotga nisbatan passivroq bo'ladi, arab tilidagi sodda dialoglarni bosqichma-bosqich shakllantirishga qiynaladi va o'z fikrini erkin aytishda psixologik to'siq paydo bo'ladi. Bu holat ayniqsa sarf va nahv kabi mavzularda yaqqol ko'rinadi: o'qituvchilar vaznlar, fe'l turlari yoki i'rob qoidalarini tezroq yetkazish maqsadida ularni o'zbekcha terminlar bilan izohlaydi, ammo bu usul qoidaning shaklini tushuntirgani bilan, talabada qoidaning arab tilidagi tabiiy qo'llanish modelini shakllantirmaydi. Tilning tabiiy muhitini yaratish cheklangan taqdirda talabalar grammatikani yodlaydi, biroq uni muloqotda qo'llay olmaydi. Vosita tilga bo'lgan yuqori darajadagi tayanishning salbiy ta'sirlaridan yana biri tinglab tushunish ko'nikmasining zaiflashishidir. O'qituvchi arabcha nutqni takroran o'zbek tiliga tarjima qilib berar ekan, talabalar fonetik oqimni yaxlit qabul qilmaydi, aksincha, har bir so'zni o'zbekcha ekvivalent qidirish orqali "bo'laklab idrok etish" holatiga tushadi. Natijada real tinglov vaziyatida, ayniqsa tez sur'atdagi arabcha nutqda talaba ma'noni yo'qotadi yoki jumla strukturasi haqida o'ylashga ulgurmaydi. Bu holatning shakllanishi o'zbek tili bilan arab tilining sintaktik tartibi o'rtasidagi farqlar bilan ham bog'liq: masalan, fe'lning boshida kelishi yoki ta'kid unsurlarining

¹⁶⁰ Hourani A. A History of the Arab Peoples. — London: Faber & Faber, 1991. — 576 p.

o'ziga xos o'rni — bu elementlarni ona tiliga tarjima qilib o'rgatish o'quvchida arabcha sintaktik modelning tabiiy shakllanishiga xalaqit beradi. Shuningdek, vosita tilning ortiqcha qo'llanishi talaffuz sohasida ham jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi. ta'lim jarayonida tarjima muammolari bilan bir qatorda vosita til muammolari ham dolzarb sanaladi. Til o'rganuvchi yuqorida keltirilgan holatlarni e'tiborga olib, bir necha ta'lim vositalaridan foydalanishi mumkin.

XULOSA. Arab tili ta'limida tarjima vositasidan haddan ortiq foydalanish o'quvchilarda tarjimaga asoslangan fikrlashni kuchaytiradi, fonetik va grammatik tizimni tabiiy qabul qilishni qiyinlashtiradi hamda muloqotdagi faollikni sezilarli darajada pasaytiradi. Talabalar qoidalarini yaxshi bilsalar-da, real muloqotda ularni qo'llashda qiynaladilar; eshitib tushunish sekin rivojlanadi, talaffuzda esa murakkab tovushlar o'zlashtirilmay qoladi. Biroq vosita tilni mutlaqo taqiqlash ham maqsadga muvofiq emas. Uning vazifasi — murakkab tushunchalarni qisqa izohlash, lekin arab tilidagi tabiiy muloqotni almashtirmaslikdir. Eng muhim jihat — vosita tilning funksional chegarasini belgilashdir. Bugungi innovatsion pedagogik texnologiyalar bu muammoni samarali hal etadi. Kommunikativ metod, CLIL yondashuvi, to'g'ridan-to'g'ri metod, AR/VR imkoniyatlari, sun'iy intellekt va multimedia resurslari arab tilini tarjimaga qaram bo'lmagan, tabiiy kontekst asosida o'rgatishni ta'minlaydi.¹⁶¹ Xulosa qilib aytganda, arab tilini zamonaviy talablar asosida o'qitishda asosiy maqsad — tarjimasiz, bevosita til muhiti asosida fikrlaydigan va muloqot qila oladigan shaxsni shakllantirishdir. Buning uchun darsning asosiy qismi arab tilida olib borilishi, o'qituvchi muloqotga undovchi faol metodlardan foydalanishi va vosita tilni faqat zarur holatlarda cheklangan yordam vositasi sifatida qo'llashi lozim. Shunda talaba arab tilini grammatik qoidalar yig'indisi emas, balki tirik muloqot vositasi sifatida qabul qiladi va unda mustaqil fikrlash ko'nikmasiga ega bo'ladi.

¹⁶¹ Gutas D. Greek Thought, Arabic Culture: The Graeco-Arabic Translation Movement in Baghdad and Early Abbasid Society. — London; New York: Routledge, 1998. — 245 p.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eschanov U. Arab tili sarf ilmini o'qitishdagi pedagogik muammolar va ularni yechish yo'llari. //Eurasian Journal of Social Science, Philosophy and Culture, 2025. —№ 5. —B. 162-167.
2. Maksumova I. O'zbekistonda oliygohlarda arab tili o'qitish tajribalari. // Ilm fan xabarnomasi, 2025. 10- jild. —№ 1. www.worldlyjournals.com
3. MUTARRIZIYNING “RISOLATUN FIN NAHV” ASARI MO‘JAZ GRAMMATIK MANBA. (2025). *Barqaror Taraqqiyot Va Rivojlanish Tamoyillari*, 3(4), 85-88. <https://uzresearchers.com/index.php/BTRT/article/view/2528>
4. NOSIR AL-MUTARRIZIY MEROSIDA TARJIMA NAZARIYASI VA DIDAKTIKASI: “RISALATUN FIN-NAHV” ASARI VA ZAMONAVIY TARJIMA TA'LIMI INTEGRATSIYASI. (2025). *SCIENCE TIME*, 3(5), 150-155. <https://doi.org/10.66345/stj.v3i5.4640>
5. Prakashan, A. Central Asia: Literary Cultural Scenario and Hindi.
6. Jo'rayeva, M. A. “SHARHI MULLO” A RARE SOURCE.
7. TOSHMATOVA, S. (2024). EXPLORING INDIVIDUAL-PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO ENHANCE MOTIVATION AMONG EFL STUDENTS. *News of the NUUZ*, 1(1.10. 1), 208-209.
8. Abdusalomovna, S. M. (2025). ERKIN A'ZAM NASRIDA IJODKOR OBRAZI TALQINI. *PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI*, 17(02), 747-749.
9. АЛИЕВА, Д. ПРОБЛЕМЫ ФОНЕТИКИ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКЕ. *XALQ TA'LIMI*, 91.
10. Raxmonov, A. K. (2025). *Nosir al-Mutarriziyning “Risalatun fin-nahv” asarining Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari: Tekstologik va metodologik tahlil. Oriental Journal of Philology*, 6(I3), 588–599. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-06-I3-60>